

# Ingliz Va O'zbek Tillarida Stativlikning Izomorflik Va Allomorflik Xususiyatlari

To'qboyeva Malohat Bahodirovna<sup>1</sup>

**Аннотация:** Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida stativlikni ifodalovchi sintaktik birlıklarning sintaktik o'rni aniqlanib, har ikkala tillarda stativ sintaksemaning paradigmatisasi hamda ularning izomorflik va allomorflik xususiyatlari tadqiq qilingan. Shuningdek, stativlik kategoriyasining ikki qardosh bo'lмаган tillarning gap qurilmasidagi birlıklarning sintaktik o'rnnini aniqlash uchun uni sintagmatik yo'nalishda o'rganib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** gap qurilmasi, stativ elementlar, izomorflik, allomorflik, holat kategoriyasi, grammatik kategoriya, makrokategoriya, stativlik kategoriyasi.

## Kirish

Hozirgi zamon tilshunosligida turli tizimli tillarning grammatick sohasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda sintaktik sathning murakkab va ko'p qatlamlari tarkibini tadqiq qilish alohida dolzarblikni kasb etmoqda. Stativlik kategoriyasining ikki qardosh bo'lмаган tillarning gap qurilmasidagi birlıklarning sintaktik o'rnnini aniqlash uchun uni sintagmatik yo'nalishda o'rganib chiqmog'imiz lozim. Stativlik gap qurilmasida sintaksemaning asosiy belgisi sifatida qo'llanilib gapning ichki eng sodda birligi hisoblanadi, o'zida sintaktik-semantik ma'no jamlangan holda, gap strukturasida sintaktik bog'liqlikka qarshi yo'naligan holatda turadigan asos yaratadi. Jumladan, qardosh bo'lмаган tillar tizimida ya'ni ingliz va o'zbek tillarida stativlik kategoriyasining umumiyyazasini yaratish, tillar strukturasida sintaktik birlıklarning umumiyyazasini yaratish, ikki til o'rtasidagi izomorflik (o'xshashlik) va allomorflik (noo'xshashlik) belgilarini va tillarning tipologik qardoshligini aniqlash jarayonlarini boshlashdan avval tilning grammatick qurilishini o'rganish muayyan tildagi grammatick kategoriyalarni o'rganishdan boshlanadi.

## Adabiyotlar tahlili

Gap strukturasida stativlik sintaksemaning asosiy belgisi sifatida qo'llanilib gapning ichki eng sodda birligi hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida stativlikni ifodalovchi sintaktik birlıklarning sintaktik o'rni aniqlanib, har ikkala tillarda stativ sintaksemaning paradigmatisasi hamda ularning izomorflik va allomorflik xususiyatlari tadqiq qilingan. Stativlik kategoriyasini tadqiq qilishda jahon tilshunosligida, o'zbek tilshunosligida ham turlicha qarashlar mavjud. Ingliz tilshunosi B.I.Ilyish stativlikni bildiruvchi so'zlar ko'p hollarda fe'lga bog'liq bo'lib keladi deb ta'kidlasa, B.S.Xaymovich va B.I.Rogovskayalar esa "adlinks" ya'ni ravishni to'ldirib keladi deb ta'kidlaydilar. V.V.Vinogradov ta'kidlashicha esa stativlik kategoriyasi sifatni to'ldirib, uni o'rni qo'llanila oladi degan farazlarni olg'a surgan. Shuningdek stativlik kategoriyasini o'rganishda A.A.Abduaazizov, U.U.Usmonov kabi tilshunoslarning tadqiqotlari diqqatga sazovor bo'lib kelgan.

## Tadqiqot metodologiyasi

Qardosh bo'lмаган tillar tizimida stativlik kategoriyasining umumiyyazasini yaratish, tillar strukturasida sintaktik birlıklarning umumiyyazasini yaratish, ikki til o'rtasidagi izomorflik (o'xshashlik) va allomorflik (noo'xshashlik) belgilarini va tillarning tipologik qardoshligini aniqlash jarayonlarini boshlashdan avval tilning grammatick qurilishini o'rganish muayyan tildagi grammatick kategoriyalarni o'rganishdan boshlanadi. Har ikki tilda ham grammatickaning asosini grammatick kategoriyalar tashkil qilib, ular ikki xil bo'ladi:



- a) birlamchi gramatik kategoriylar yoki gramatik makrokategoriylar;
- b) kichik gramatik kategoriylari yoki gramatik mikrokategoriylar.

Hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillaridagi so'z turkumlari klassifikatsiyasi so'zlarning quyidagi xususiyatlari ko'ra, yani:

- a) leksik va leksik-grammatik ma'nolariga ko'ra;
- b) morfologik formalarining ma'lum bir gruppaga kiruvchi so'zlar uchun umumiyligiga ko'ra.
- c) so'zlarning gapdagi roliga ko'ra aniqlanadi.

So'zlarni guruahlarga bo'lishda ularning ham leksik, ham gramatik formalari hisobga olinganligi uchun so'z turkumlari so'zlarning leksik-grammatik razryadlari ham deyiladi [4;101]. Biroq stativlik kategoriysi ingliz va o'zbek tillarida ham mustaqil so'z turkumi hisoblanmaydi. U fe'l turkumiga kiruvchi so'zlar ish- harakatini, holatini yoki jarayonini bildiradigan so'zlar tarkibida harakatlanadi: *run-* chopmoq, *sleep-* uxlamoq o'zbek tilida: ***kelmoq, ko'karmoq, ko'rmoq*** va boshqalar.

Har bir turkumga mansub so'zlarning o'ziga xos morfologik formalari bo'lib, u formalar morfologik paradigmalarni tashkil qiladi va ma'lum gramatik kategoriylar bilan bog'liq bo'ladi. Xususan, ingliz tilida holat kategoriyasini tashkil qiluvchi birliklarning 90% a-prefaksi asosida berilsa: ***alive, aslant, agog, alone***, o'zbek tilida esa holatni bildiruvchi birliklar fe'l turkumiga kiruvchi so'zlar orqali ifodalanadi: ***seskanmoq, titramoq, jovidiramoq, jilmaymoq*** bu holat esa ular o'rtasidagi allomorflikni ko'rsatsa, ingliz tilidagi qolgan 10% holatni bildiruvchi birliklarning fe'l turkumida ifodalanishi esa ular o'rtasidagi izomorflik xususiyat mavjudligini ko'rsatadi.

Mustaqil so'z turkumlarining ko'p qismi o'zining paradigmatic formasiga ega bo'lganligi va ma'lum gramatik kategoriyalarda o'zgaganligi sababli ularni o'zgaruvchi (**changeable**) so'z turkumlari deyilsa, yordamchi so'z turkumlariga kiruvchi predloglar, bog'lovchilar, yuklamalar va artikllarni o'zgarmas (**unchangeable**) so'zlar deyiladi. Shuni takidlash lozimki, holat kategoriysi har ikkala tilda ham mustaqil ham yordamchi so'z turkumiga ham mansub emas.

Ingliz va o'zbek tillar qiyosiy tipologiyasi asoschisi professor J. Bo'ronov takidlaganidek, birlamchi gramatik kategoriyalarning ingliz va o'zbek tillarida ifodalanishida ayrim allomorflik xususiyatlari bor. Allomorflik hodisalar o'z navbatida ikki katta gruppaga bo'linadi: 1). so'z turkumi ikkinchi tilda gramatik makrokategoriya tarzida mavjud bo'limasa, biz uni makrokategororial allomorflik deymiz; 2). ikkinchi tilda makrokategoriya mavjud bo'lsa-da, uning ma'lum qismi mavjud bo'lmaydi yoki formal ko'rsatkichsiz bo'ladi. Buni biz mikrokategororial allomorflik deymiz [4,107].

Holat kategoriysi va aniqlik-noaniqlik kabi kategorial tushunchalar ingliz tilida maxsus lingvistik birliklar vositasida ifodalangani uchun ham ular asosiy kategoriylar sifatida ajratiladi. O'zbek tilida esa ular maxsus kategoriya sifatida ajratilmaydi, chunki ularni ifodalovchi maxsus leksik-grammatik birliklar majud emas.

Shunga qaramay, o'zbek tili sistemasida bu tushunchalarni ifodalash uchun lingvistik birliklar topiladi, ammo ular maxsus bo'lmay, periferal birliklar deyiladi. Periferal (yordamchi) birliklarning asosiy vazifasi boshqa gramatik kategoriyalarni yasashga xizmat qilib, holat, aniqlik (noaniqlik) kabi manolarni qo'shimcha ifodalashidan iborat.

Holat kategoriysi ingliz tilida ma'lum shaxs va predmetning fizik yoki ruhiy holatini ifodalaydi, uning maxsus semantik va formal belgilari bor.

Hozirgi ingliz va o'zbek tillarining ikkalasida ham berilishi uchun fe'lning faqtgina mavjudligini belgilaydigan, biz fe'l yasashda qo'llaydigan konversiya (**Conversion**) fe'l yasash usuliga kiruvchi turg'un fe'llari yordamida holat kategoriyasini bildiruvchi so'zлarni ko'rsatamiz. Konversiya deb, so'z turkumlariga hech qanday qo'shimcha qo'shmay so'z yasashga aytildi. Turg'un fe'l birikmalari mustaqil va yordamchi fe'llarning boshqa mustaqil so'zlar yoki predloglari bilan birikuvidan yasaladi.

Hozirgi zamon ingliz tilida ishlatiluvchi holatni bildiruvchi so'zlar turg'un fe'llar yordamida ham berilishi yoki gapda kelishi mumkin: ***to draw aside – fe'li “bir chekkaga olib chikmoq”*** degan tarjima



beradi biz esa, bu birikma bilan holat manosini beruvchi so‘zlar o‘rnini o‘zida tobe orqali kela oladigan turg‘un fe’llar ishlatilishini ko‘rsatishimiz mumkin.

**Masalan:** If you take or draw someone aside, you take them a little way away from a group of people in order to talk them in private.

Ushbu gapda holat ravishi turkumida berilib, ammo fe’ldan keyin kelib yoki qo‘llanilib asil fe’l manosidan turg‘un fe’lga aylanganini ko‘ramiz. O‘zbek tili grammatikasida ham holat ko‘pchilik hollarda yoki to‘liq tarzda fe’l orqali ifodalanadi.

**Masalan:** Shundoq bekat ro‘parasida ikki qavatli univermag oyna va deraza eshiklarini ochgan, xaridolar chumoliday g‘imirlashib kirib-chiqib turishardi (O’. Hoshimov).

Qiyosiy grammatika tipologik jihatdan xarakterologiya xususiyatiga binoan hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tillarida holat kategoriyasini ifodalash maqsadida ikkala til morfologik xususiyatiga kiruvchi, fe’l yasashda foydalanuvchi turg‘un fe’llar yordamida ular o‘rtasida izomorflik mavjudligini uchratdir.

Hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tilidagi izomorflik va allomorflik jihatlarni biz yana ular o‘rtasida yuz beradigan kesimlik munosabatida ham ko‘ramiz. Ingliz tilida holat kategoriyasi ot bilan sifatning qo‘shilishi natijasida xosil bo‘lgan bo‘lib, ijtimoiy hodisa sifatida holatni ifoda etishda qo‘llanilar edi. Biroq qo‘llanilgan otlar holatni ifoda etishdan ko‘ra ko‘proq gapning kesimi bo‘lib keladi. Chunki, gapda Amerika deskritiv maktabi vakillari Leonard Blumfeld va Z.S. Harrislar bergan izohga ko‘ra, “Gaplarni tartiblashda uni muloqot bilan dahldorligi” (ya’ni doimiy holatlarning tartibi, savollar, buyruqlar) ko‘pchilik hollarda kesim vazifasida keladi **Masalan:** *He always keeps aloof.*

Hozirgi zamon ingliz tilida umumiyl kesimlik to‘g‘risidagi fikrlar e’tirof etgan M. Ya. Bloh o‘zining “A course in theoretical English grammar” nomli kitobida holatni ifodalovchi fe’llarni kesim bilan birgalikda ega orqali tavsiflagan. Bu kesim aloqasi tom ma’noda “kesim yo‘nalish chizig‘i” deb gapda ifodalanadi. **Masalan:** *He may happy any time.*

Shu qatori o‘zbek tili grammatikasida ham holat kesim orqali ma’no jihatdan ifodalani kelishi mumkin. **Masalan:** *Lagan-tovoqning bir-birisiga tekkan tovushi eshitilib, Otabek o‘zini oxistagina yo‘lakka oldi (A.Qodiriy).*

B. A. Ilyishning fikriga ko‘ra “Kesimni gap bo‘lagi vazifasida kelishida ega holatini o‘rganib, unga tobe tarzda kelishi takidlanadi ”[3; 200]. Kesim tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: **oddiy va qo‘shma.** Morfologik xarakteristikasiga ko‘ra fe’lli va otli hisoblanadi. Kesimning holatini yoki gapning holatini kesim orqali anglatishimizda uning tuzilishiga e’tibor bermog‘imiz lozim.

B. A. Ilyish bunga ham fikr bildirmoqda “Agar oddiy otli kesim to‘liq gapga aylantirilsa qo‘shma fe’lli kesim bo‘ladi” deb ta’kidlagan. Bu hodisa sintagmatik aloqalar yuz bergan vaqtida sodir bo‘ladi. Bunga sabab semantik fuksiyalarni ochib berish uchun so‘zlar, belgilar jihatidan gapdagi holatni ko‘rsatish holatlarida biri boshqasi bilan sintagmatik bog‘lanadi.

Kesim vazifasini ifodalashda undagi faollik xususiyatda beriladigan holatni The Continuous Tense qo‘shimchasi +**ing** bilan birikkan vaziyatida yopiq sintakmatik turda bog‘lanadi. **Masalan:** *All about them happy persons were enjoying the good things of life, talking, laughing and making merry (Maugham).*

Kesimni ega bilan bog‘lab egali konstruksiya tuzadigan bo‘lsak, ega so‘zning fe’l bo‘lmagan ko‘proq holat yoki turdosh so‘zlar bilan semantik jihatdan, ammo asosiy ma’noni ba’zi ikki yoki bir necha so‘zlar holatini ko‘rsatmoq maqsadida sintagmatik rejada ma’lum sintaktik aloqaga kirishadi. **Masalan:** *Aware of John’s presence- am aware.*

Azim Xojievning «O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi» nomli kitobida shaxs, narsa- predmetning so‘z yasalishi asosi anglatgan ish - harakatni qilish manosidagi fe’llar yasaydi deb fikr yuritgan: harakatlanmoq, himoyalanmoq.

Mustaqil yoki alohida so‘z turkumi sifatida stativlik kategoriyasini har ikki til doirasida ham belgilab ololmaymiz. Ikki tilning morfologik sathida ham holat kategoriyasi leksik birliklar gap qurilmasida



kesim vazifasida berilganda ingliz tilida bog‘lama fe’l **to be** ning shaxsli shakli va holatni bildiruvchi fe’llar orqali anglashilsa, o‘zbek tilida fe’l turkumiga to‘liq birikkan holda yasaladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida holat kategoriyasi mustaqil so‘z turkumi hisoblanmaydi. Ingliz tilida ma’no jihatdan sifat va ravishga hamda fe’lga bog‘lansa, o‘zbek tili gap qurilmasida to‘liq tarzda fe’lga bog‘lanib holat anglashiladi. Ingliz va o‘zbek tillari bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillar bo‘lganligi sababli ular o‘rtasidagi izomorflik juda kam miqdorda bo‘lib, bu esa tahlil va munozaralarda bilinadi.

Ingliz tili german tillar guruhiga mansub bo‘lsa, o‘zbek tili oltoy tillar oilasiga mansub til hisoblanadi. O‘zbek tilida birgina so‘zning turli ekvivalentlari mavjud, biroq ingliz tilida bu hodisa biroz cheklangan. Shunday bo‘lgan taqdirda ham har ikkala tilda N.Q. Turniyozov takidlaganidek, “Har bir til elementi, o‘zining katta yoki kichikligidan qati’y nazar, nutqda faollashadi va aniq qo‘llanilish imkoniyatiga ega bo‘ladi ” shu bois garchan holatni ifodalovchi elementlar har ikkala tilda ham bir xil ma’no bersada biroq ular o‘rtasidagi vazifalar turlicha hisoblanadi.

N.A.Baskakov turkiy tillar tizimi sintaktik va leksik birlıklar strukturasidan tortib, to morfologik va fonologik tizimlardagi har bir mustaqil so‘zgacha barcha sathlarda izomorfizm bilan chambarchas bog‘langan, degan xulosaga keladi. Biroq ingliz va o‘zbek tillari birinchidan qardosh tillar sirasiga kirmaydi, ikkinchidan stativlik kategoriyasi mustaqil so‘z turkumi hisoblanmaydi. Xullas, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida izomorflik va allomorflik xususiyatlari mavjud bo‘lib ular ikki til grammatikasida hali ochilmagan yangiliklarni yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.

Stativ sintaksema nokategorial sintaktik-semantik belgilardan biri bo‘lib, kategorial belgilardan substansiallik, protsessuallik va kvalifikativlik sintaksemalar bazasida namoyon bo‘lishi mumkin. Gap qurilmasida yadro predikativ 2 o‘rnida kelgan stativ sintaksemalar yadro predikativ aloka asosida stativlik yuklatilgan substansial sintaksema bilan bog‘lansa, subordinativ aloka bazasida kvalifikativlik doirasida kvantitativ, kvalitativ, emotiv, komparativ sintaksemalar bilan bog‘lanadi. Substansiallik doirasida – lokativ, emotiv, obektiv, kauzal, komitativ sintaksemalar bilan bog‘lanadi. Protsessuallik doirsada- obekt, kauzal, aksional, temporal, komitativ sintaksemalar bilan bog‘lanadi. Stativ sintaksema fe’ller yordamida ifodalanganda, malumki, fe’ller mano jihatidan ikki turga bo‘linadi: dinamik va statik fellarga: dinamik fe’ller harakatni ifodalovchi fe’ller bo‘lib, ular shaxs yoki predmetning harakati natijasida yuzaga kelib, gap qurilmasida yadro predikativ 2 o‘rnida kelganda protsessual aksional sintaksemani ifodalab, yadro predikativ aloka asosida substansial agentiv sintaksema bilan boglanadi. Statik fe’ller esa gap tarkibida yadro predikativ 2 o‘rnida kelib, protsessual stativ sintaksemani ifodalaydi va yadro predikativ aloka asosida stativlik yuklatilgan substansial sintaksema bilan bog‘lanadi. Mazkur sintaksemalar eksperiment metodining turli usullari (ko‘sishcha kilish,nominallashtirish) yordamida isbotlanadi.

Ayrim tilshunoslarning fikricha “asleepy” so‘zi holatni bildiradi, biroq “sleepy” suzi esa sifatni ifodalaydi degan qo‘shish kiyin. Sintaksemalarga ajratib taxlil kilinganda, yani “asleepy boy”, “sleepy boy” har ikkalasida ham “asleepy”, “sleepy” kategorial belgilardan kvalifikativlikni ifodalasa, nokategorial belgilarda kvalifikativlikni ifodalaydi. Stativlikni ifodalagan sifatlar gap tarkibida yadro predikativ 2 o‘rnida kelganda har doim to be fe’li bilan birikib keladi va kvalifikativ stativ sintaksemani ifodalaydi. Ayrim hollarda ravish ham to be fe’li bilan birikib, kvalifikativ stativ sintaksemalarni ifodalashi mumkin.

## Xulosa

Umuman olganda, mazkur maqolada ingliz tili gap qurilmasida stativlikni ifodalovchi sintaktik birlıklarning sintaktik o‘rni aniqlanib, stativ sintaksemalarning izomorflik va allomorflik xususiyatlarining tahlili yoritib berildi. Xususan, ingliz va o‘zbek tillarida holat kategoriyasi garchan mustaqil so‘z turkumi hisoblanmasada ammo ularning leksik bazasini tashkil qiluvchi elementlar mavjud. O‘zbek tilida stativ sintaksemaning leksik bazasini so‘z turkumlarining biridan ikkinchisiga to‘liq qo‘shish orqali ro‘y beradi. Bunday vaziyatlarda fe’l turkumiga sifatni qo‘shish nazarda tutiladi. Tadqiqotning natijalariga ko‘ra har ikkala turli tizimli tillarda stativlikni ifodalovchi so‘zlar yoki leksik birlıklar alohida so‘z turkumi guruhi kirmsandan, ular har xil so‘z turkumlari yordamida ifodalanishining guvohi bo‘ldik.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristova E.B. Substantivnie varianti agentivniy sintaksemi// Lingvisticheskaya issledovaniya. Sintaksicheskiy analiz roznostilnix yazikov.- Moskva: ANR, 1979-s 8-13.
2. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.-88 b.
3. Doroshenkov V.A. Kvalitativnie elementi v predlojeniyax sovremennoogo angliyskogo yazika\Avtoreferat.diss....kand.filol.nauk. Leningrad, 1976,-25 s.
4. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1987.-88 b.
5. Ivanova I.P, Burlakova V.V, Pocheppsov G.G. Teoreticheskaya grammatika sovremennoogo angliyskogo yazika. - M.:Nauka, 1981.-286 s.
6. Jamolxonov X. Xozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
7. Kayumova M.S. Ingliz va uzbek tillarida negativlik kategoriyasining sintaksem tadqiqi \| Nomzod. diss..avtoreferati. – Toshkent,2010-27 b.
8. Karimova G. O'zbek tilida grammaticalizatsiya xodisasi.- Toshkent, 2010.-36 b.
9. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari.- Toshkent: "Fan";1989.-141b.
10. Kubeyzinova D.T. Sintaksiko- semanteskie osobennosti lichnih mestoimeniy v strukture predlojeniy sovremennoogo angliyskogo yazike \| Avtoreferat.diss...kand.filol.nauk.- Tashkent,2008-20 s.
11. Muxin A.M. Sintaksemniy analiz i problemi urovney yazika. Leningrad: Nauka,1980.-304 s.
12. Usmonov O'. Gap tahliliga yangicha yondoshuv\| Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. SamDChTIning 10 yilligiga bag'ishlanadi.- Samarqand: SamDCHTI nashri, 2004.-B.106-107.

